

**PREGABALIN PREPARATIDAN ZAHARLANISNNI
SUD-TIBBIY JIHATLARI**

Norov Alisher Tursunmurotovich

RSTEIAM Toshkent viloyat filiali, oliy toifali sud-tibbiy ekspert

Lochinov Farxod Nazarovich

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti, 1-son Sud tibbiyoti va
tibbiyot huquqi kafedrasi katta o'qituvchisi, t.f.n.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada pregabalin preparatini toksikologik ahamiyati, organizmga ta'sir mexanizmi, klinik belgilari, diagnostikasi, iste'moli oqibatlarini, oldini olish choralar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: sud toksikologiyasi, giyohvandlik, pregabalin, organizmga ta'siri, qaramlik belgilari, profilaktik choralar.

Mavzuning dolzarbligi. Giyohvandlik - insoniyat salomatligi, taqdiri va hatto kelajagiga raxna soluvchi global ofatdir. So'nggi davrda narkotiklar va psixotrop moddalarni iste'mol qilish masalasi dunyoning ko'pgina davlatlari qatorida mamlakatimizda ham dolzarb muammo sifatida tan olingan. Ta'kidlash lozimki, narkotik va psixotrop moddalardan mastlik holati o'z-o'zini o'ldirish, baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishi (yo'l-transport hodisasi, balandlikdan yiqilish, yong'inda kuyish, cho'kish va bshq.) va qotillik qurboni bo'lish ehtimolini ancha oshiradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda dunyo bo'yicha umumiy giyohvandlikning 65,0-67,6 foizini «tabletkaga giyohvandligi» tashkil qilmoqda.

Toksikologik ahamiyati. Pregabalin – tutqanoqqa qarshi preparat, kimyoviy formulasi $C_8H_{17}NO_2$, oq-qizil rangli kapsula shaklida chiqariladi, ta'sir etuvchi moddasi gamma-aminobutirat (gamma-aminomoy) kislotasi hisoblanadi. Pregabalin markaziy asab tizimida harakat potensialiga bog'liq kalsiy kanallarini qo'shimcha subbirligi ($\alpha 2$ -delta-protein) bilan bog'lanib, [3H]-gabapentin o'rnini qaytmas egallashi aniqlangan. Bunday bog'lanish uning og'riq qoldiruvchi va tirishishga qarshi samaralarini namoyon bo'lishga yordam beradi. Pregabalin og'riq qoldirish xususiyatiga ham ega, shuning uchun diabetik neyropatiya va postgerpetik nevralgiiyaga chalingan bemorlarga buyuriladi. Pregabalin shifokor nazoratisiz, o'zboshimchalik bilan iste'mol qilinsa, o'ziga nisbatan qaramlikni keltirib chiqaradi va ularni iste'mol qilganlar passiv giyohvandga aylanadi. Chunki pregabalin preparatini narkotik effekti qo'p jihatdan opiatlar bilan bir xil ta'sirga ega.

Pregabalin O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan 12 ta dori vositasining tarkibiga kiruvchi faol modda. Bir qancha savdo nomlari va chiqarish shakllari mavjud (jumladan, Gabalis, Turkiya. Lirika/Lyrica®, Germaniya. Neyrofit, Polsha. Pagamaks, O'zbekiston. Regapen, Turkiya).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi №818-sonli "O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida"gi qaroriga asosan pregabalin preparati kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga kiritilgan.

Qabul qilish yo‘llari. Narkotiklar va psixotrop moddalarga qaram bo‘lgan shaxslar pregabalin preparatini asosan *og‘iz orqali, ba‘zan vena ichiga yuborish va burunga tomizish* usullar bilan qabul qilishadi. Preparatni vena ichiga yuborish usuli qon tomirlarini chirishiga va in‘eksiya o‘rnida to‘qimalarini nekroziga sabab bo‘ladi. Burunga tomizish usuli bilan qabul qilinganda burun shilliq qavatini qurishi va qobiqchalar shakllanishiga olib keladi.

Giyohvandlar ushbu dorini stimulyatorlar bilan aralashtirish orqali eyforiyani kuchaytiradi, uning ayniqsa spirtli ichimliklar bilan aralashmasi maksimal darajada lazzatlanishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, alkogol iste‘moli pregabalin preparatini organizmda parchalanishini va chiqirilishini susaytirishi sababidan kuchli intoksikatsiya rivojlanadi. Masalan, 300 g “Lirika” va 300 ml alkogol iste‘moli yurak ish qobilyatini 5 marta oshishiga olib keladi, bu esa o‘z nabatida yurak tuxtashiga yoki tromb yorilishiga sabab bo‘ladi.

Moddaning inson organizmiga ta‘siri. Pregabalin och qoringa ichga qabul qilinganda tez so‘riladi. Qon plazmasida maksimal konsentrasiyasiga (Cmax) bir marta qabul qilganda ham, takroran qabul qilganda ham 1-2 soat ichida erishiladi va oragnizmga ta‘siri 10 soatgacha davom etadi. Ammo, ovqat qabul qilish pregabalinning umumiy so‘rilishiga klinik ahamiyatli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Pregabalin deyarli metabolizmga uchramaydi, asosan buyraklar orqali o‘zgarmagan holda chiqariladi.

Pregabalindan zaharlanishni asosiy simptomlari: kungil aynishi va qusish, nafas olishni qiyinlashishi, qaltirashlar, koordinatsiya va harakatni buzilishi, gallyusinatsiyalar, xushdan ketish.

Qaramlik belgilari. Pregabalin farmakologik dozada qabul qilinsa, tinchlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi va qo‘rquv xissidan kutilishga yordam beradi. Shuningdek, og‘riq sezgisi pasayadi va ishtahasi yaxshilanadi. Bemor qisqa vaqt ichida ushbu holatga o‘rganib qoladi. Dastlabki samarani xis qilish uchun preparat dozasini oshira boshlaydi va qaramlik rivojlanadi. Pregabalin preparatini qabul qiladigan giyohvandlarda sanoqli xaftalar ichida “qaramlik” kelib chiqadi. Jismoniy qaramlikda tabletka qabul qilmagan paytda bo‘g‘imlarda og‘riq turadi, ishtaha yo‘qolishi, ko‘ngil aynishi, surunkali ich ketish, yurak og‘rig‘i kuzatiladi. Ruhiy qaramlikda esa tabletka iste‘mol qilmagan paytda uyqusizlik, qo‘zg‘aluvchanlik, jahldorlik, agressivlik, qo‘li ishga bormaslik holatlari avj oladi.

Qaramlik oqibatlari. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: eyforiya, ongni chalkishishi, libidoni susayishi, ta‘sirchanlik, uyqusizlik, dezorientatsiya, bosh aylanishi, ataksiya, diqqat-e‘tiborni buzilishi, koordinatsiyani buzilishi, xotirani susayishi, tremor, dizartriya, paresteziyalar, muvozanatni buzilishi, amneziya, ko‘rishni xiralashishi, diplopiya, ko‘rish maydonini qisqarishi, ko‘rish o‘tkiriligini pasayishi, ko‘zlarda og‘riq, ko‘zlarni qurishi, ko‘zni shishi, ko‘zni yoshlanishi, taxikardiya, arterial bosimni pasayishi, qo‘l-oyoqlarni sovuq qotishi, hansirash, yo‘tal, burun shilliq qavatini qurishi, burundan qon ketishi, tomoqda siqilish hissi, burun bitishi, xurrak otish, ishtahani oshishi, qusish, og‘izni qurishi, qabziyat, qorinni dam bo‘lishi, gastroezofageal refluyuks kasalligi, so‘lak chiqarilishini oshishi, tilni shishi, diareya, ko‘ngil aynishi, teri giperemiyasi, terlash, papullyoz toshma, mushaklarni tortilishi, bo‘g‘imlarni shishi, mushaklarni tirishishi, mialgiya, artragliya, belda og‘riq,

oyoq-qo‘llarda og‘riq, dizuriya, siydikni tutib turolmaslik, erektil disfunktsiya, eyakulyatsiya kechikishi, dismenoreya, amenoreya, sut bezidan ajralmalar, sut bezida og‘riq, sut bezlari hajmi kattalashishi.

Diagnostikasi. Qonda va peshobda pregabalin mavjudligini laborator aniqlash usullari (gaz yoki gaz-suyuqlik xromatografiyasi va xromato-mass-spektrometriya) mavjud. Peshob tahlili pregabalin mavjudligini aniqlashni keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Preparatni oxirgi qabul qilingan vaqtdan boshlab 5 kunga qadar peshobda topilishi mumkin. Murda tekshiruvda tez sodir bo‘lgan o‘lim belgilari, venalarda ukol izlari aniqlanadi. Albatta keltirilgan o‘zgarishlar asosida pregabalin preparatini iste‘mol qilinganligi to‘g‘risida ishonchli va qat‘iy xulosa qilib bo‘lmaydi. Ular bilvosita dalil xususiyatiga ega bo‘lib, voqea tafsiloti, katamnestik yoki klinik ma‘lumotlar va asosan – sud-kimyoviy tekshiruvlar natijalari bilan birgalikda baholanishi lozim.

Xulosa. Giyohvandlikka qarshi kurashda hamda narkomaniya illatidan o‘tib kelayotgan yosh avlodni asrab-avaylashda nafaqat huquq-tartibot idoralari xodimlari balki xalq ta‘limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy soha vakillari, yoshlar tashkilotlari va keng jamoatchilik hamkorlikda ishtirok etishlari lozim. Bolalar va o‘smirlar orasida giyohvandlikning oldini olish masalasi avvalo ular ongida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; yosh avlod o‘z sog‘lig‘ining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ongli ravishda tushuntirish; oilada sog‘lom muhit yaratish (hukmlarning yo‘qligi, qiziqishlarning umumiyliigi, murosaga kelish qobiliyati, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash); o‘zingizning misolingiz (oilada giyohvandlarning yo‘qligi giyohvandlikning oldini olishga ijobiy ta‘sir qiladi); axborotni to‘ldirish (ta‘lim muassasalarida taqiqlangan dorilarning zarari to‘g‘risida ma‘ruzalar o‘tkazilishi); qiziqish darslari (asosiy faoliyatdan tashqari, odam sevimli mashg‘ulotiga ega bo‘lishi); ijtimoiy doira (yaqin odam kim bilan aloqa qilayotganini bilish) giyohvandlikning rivojlanishini oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №818-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori. 2019 yil 27 sentyabr.
2. Акалаев Р.Н., Розанов В.А ва бошқ. “Ўткир экзоген захарланишларда ўз жонига қасд қилиш ва парсуицидал ҳаракатлар” //Вестник экстренной медицины. 2019, том 12, №6.
3. Giyosov Z.A. Sud tibbiyoti. //Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. - Toshkent, “Global Books” nashriyoti, 2018.
4. Иванец Н.Н., Тюльпин Ю.Г., Кинкулькина М.А. Наркология. Учебное пособие. - Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2011.
5. Козловский В.Л. Краткий справочник по психофармакологии, фармакотерапии и психической патологии / Санкт-Петербург: СпецЛит, 2015.
6. Минко А.И., Линский И.В. Наркология: [соврем. методы диагностики и лечения в наркологии: классификация психотроп. веществ: основные правила реабилитации лиц с наркозависимостью: профилактика рецидивов после лечения]: новейший справ. / [2-е изд., испр. и доп.]. - М.: Эксмо, 2004.
7. Метью Дж. Элленхорн. Медицинская токсикология: Диагностика и лечение отравлений у человека в 2 т./пер. с англ. М.: Медицина, 2003. – т.1 С.400-406.
8. Судебная медицина: национальное руководство /под ред. Ю.И.Пиголкина. - М .: ГЭОТАР-Медиа, 2018.